© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

ANBAR OTIN IJODIDA VATANPARVARLIK VA, MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI.

Axrorova Madina Raxmatovna
Samarqand davlat pedagogika instituti.
madinaakhrorova@gmail.com.
Tel: 93.680-44-15.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi Anbar Otin (Farmonqul qizi) o‘zining o‘tkir ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi. Uning ijodida vatanparvarlik, xalqparvarlik, ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari muhim o‘rin tutadi O‘zbek mumtoz shoiralari ijodini kuzatar ekanmiz ular ijodida ikki tuyg‘u vatanga muhabbat va uning dushmanlariga nafrat ko‘pincha kontrast holida keladi.Bu ularning mohir iste’dod egasi ekanligini ko‘rsatadi. Anbar Otin ham ana shunday iste’dod sohibasi. Shoira sevgan tabiat boyliklari, buloqlar, mevalar va qonlar bilan to‘lib toshgan yurtda hamma qashshoq yashaydi deya ta’rif beradi. Anbar otin “Mulki Farg‘ona” deb boshlanuvchi g‘azalida bag‘ri keng va sahiy Farg‘ona vodiysini faxr bilan ta‘rif etadi. “Farg‘ona diyori dostonlarga yoqimli mavzu bo‘lgandir” deb so‘z boshlagan Anbar otin shaharlardagi aholining asosiy mashg‘ulotlarini ham birinchi navbatda ko‘zda tutadiki, bu shoira sherlariga alohida fazilat baxsh etadi. Marg‘ilon bugungi kunda ham o‘zining atlas-shohilari bilan mashhurdir. Marg`ilon kosiblarining ota-bobolari ham ana shu hayot uchun zaruriy kasb bilan nom taratganlar.

Marg‘ilon monandi modar zinatoron jahon,
Har chi zebad on chi po‘shonad, azo imkon laziz

Mazmuni:

Marg‘ilon olamga ona kabi oroyish beruvchidir.
U, imkon boricha nimaiki kiydirsa, yarashgani xushdir.

Shoira ushbu misrada Marg‘ilon shahrining madaniy-ma’rifiy ahamiyatiga, uning dunyo miqyosidagi go‘zallik va ipakchilik beshigi ekanligiga ishora qilmoqda. Marg‘ilonning ipakchilik tarixi, atlas va adras to‘qish san’atiga ishoradir. Asrlar davomida Marg‘ilon ipaklari nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo bo‘ylab ayollarga o‘zgacha ko‘rk, latofat va milliy go‘zallik bag‘ishlab kelgan.

Anbar Otin Marg‘ilonni onaga qiyoslaydi. Ona o‘z farzandini qanday mehr bilan to‘ydirib, kiyintirib, jamiyatga yuzini yorug‘ qilib qo‘ysa, Marg‘ilon shahri ham butun olamga, insoniyatga o‘zining betakror san’ati, madaniyati va hunarmandchiligi bilan ziynat bag‘ishlaydi. Bu yerda ona mehri va shahar yaratgan ne’matlar o‘rtasida samimiy o‘xshashlik topilgan. Misra orqali Marg‘ilon shunchaki geografik manzil emas, balki butun dunyoga mehr ulashuvchi, o‘zining betakror adras va atlaslari orqali bashariyatga fayz va ziynat tarqatuvchi tabarruk maskan sifatida ulug‘langan.

Shoiraning quyidagi misralari vatanparvarlikni madh etuvchi ajoyib namoyishdir:

Har g‘azal go‘yad, ki Anbar haq bidorad in Vatan
Bo shukuhi nazm oroyish girad eshon

Mazmuni:

Anbar bu Vatanda har qancha g`azalxonlik qilishga haqlidir,
Nazmxonlik shavqati bilan u oroyish topib laziz bo`ladi.

Osoyishta hayotga intilgan shoira uz vatandoshlari, dugonalariga murojaat etib, haroratli qalbning umumbaxsh tuyg`ularini ketma-ket ifoda eta boradi:

Ey vatandyosh, hamfikr, hamzikrimiz, hamxonalar»
Birta yayraylik, kulaylik, jo`ralar-dugonalar.
Pardani oching, chiroyingiz ko`rinsun el aro,

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

SHam'i ruxsoringiza kuysin ko`rub parvonalar.
Kuylangiz yuz odilik mazmunida siz g`oibo,
So`ylasin Toshkand, Xo`jand, Xo`qand ham Farg`onalar, Soz oling mutribalar, Barno g`azalni boshlasun, Movarounnahr aro parvoz etib taronalar[76]

Mavjud davr ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘z she'rlarida madh etar ekan Anbar otin ham o‘z zamonasining ma'rifatparvarlari kabi dastlab rus podshosiga ma'lum umid bilan qaraydi. Lekin ko`p o`tmay uning katta e`tiqodi so`na boradi. Farg`ona mulkida adolat va saxovat o`rnida ikkiyoqlama adovat va zulmni, adolatsizlikni ko`rgan shoira rus podshosi ham bu ishlarni uddasidan chiqmaganini ko`radi. "Agar u odil shoh bo`lsa edi, shundoq fuqaro qadrig`a albatta, yetur erdiva adolat joriy etib zulmni ko`tarur erdi" degan xulosaga keladi. U zamonasidagi ijtimoiy adolatsizliklarni, oddiy mehnatkash xalqning og‘ir turmushini ko‘rib jim turolmagan. O‘z yurtining qoloqligidan og‘ringan va uning kelajagini ozod, obod ko‘rishni istagan.

Qoralar falsafasini tahlil qilar ekanmiz, risolada shoira dunyoqarashining cheklanganligi bilan izohlanadigan ziddiyatlar ham ko`zga tashlanadi. Jumladan, adiba rus podshosi Nikolayning adolati haqida so‘z ochib, "barcha xaloyiq o`rus birla barobar bo`lub, ro`zg`or kechursun" deb yozadi. Anbar otin chorizm amaldorlarini tanqid qilsada, Rossiyaning o`sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotidagi qarama-qarshiliklarni har tomonlama tushunib yetmas edi. Lekin shoira keyincha "podsho xaloyiq fikr qilg‘on ra'iyat holini neku qilg`uvchi odil emas, uning vadalariga ishonish, "ilon qornidagi chumchuq bolasining tirikligiga ishonish" bilan teng degan xulosaga keladi.

Aftidan, xalqchil ruhda yozilgan she'rlari uning atrofidagi maddoh shoirlarga ma`qul tushmagan, ular shoirani zaif-u notavon" deb kamsitgan bo`lishlari ham mumkin. Anbar otin shoiralar davrasida va'zxonlik, maddohlik avj olgan, mehnat ahlidan baxt va iqbol yuz o‘girgan davrda dunyoga kelganidan afsuslanadi. U "men zaifu notavon" deb boshlagan g‘azalida Muqiymiy, Furqat, kabi mehnatkash xalqning manfaatlarini himoya qilib kelayotgan shoirlarni iftixor bilan tilga oladi:

Aybi man payravgiri Furqatu Barno buvad
Bas, ki dar bog'i adab ashuftaxolam, bulbulam

Mazmuni:

Mening aybim Furqatga, Barnoga payravlik qilishimdadir,
Adab bog‘ida oshuftaxol bulbulman.

Keling, misralardagi payravlik qilish jumlasini izohlaylik: bu so‘z "ergashish", "ularning yo‘lidan boorish", "uslubiga taqlid qilish va adabiy maktabiga sodiq qolish" ma'nosini anglatadi. Mumtoz shoiralar ma'rifatparvarlik yo‘lida ustoz shogird an'analariga sodiq bo‘laganini ham ushbu misralarda ko‘rish mumkin. Anbar Otin Barnolar(mumtoz shoiralara) qatorida Furqatni o‘ziga ustoz deb biladi.

Bu misralar muallifning chinakam adabiyot shaydosi ekanini, o‘zidan oldingi buyuk mutafakkirlar (xususan, Furqat va Barno kabi ustozlar)ning boy merosiga tayanib ijod qilishini faxr bilan e'tirof etayotganini ko‘rsatadi. Shoir uchun adabiyot yo‘lidan adashish — eng buyuk baxtdir.

Vatanparvar shoira uni boyo‘g`lidek o‘zlariga maskan qilib olgan shoirlardan nafratlanar ekan, quyidagicha hukm etadi:

Man namexoxam, ki cho`g` az in Vatan maskan girad,
Yo ki jon cho`g` boshad, dar hududi manzilam[1]

Mazmuni:

Vatanimda kalxatning maskan tutishini
Yoki manzilimning chegarasida kalxatning ini bo`lishini istayman.

[1] Anbar otin .She`rlar,inv,№1647, 117-sahifa.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Shoira ijodida vatanparvarlik millatning har bir a'zosiga, jumladan, ayollarga erkinlik va hurriyat olib kelish bilan chambarchas bog'langan. Jamiyatdagi tazyiqlar, savodsizlik va qoloq urf-odatlarni qattiq qoralagan.

Sharq ayollarining ilm olib, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishini orzu qilgan. U o'zining ilg'or qarashlari bilan milliy uyg'onish va ozodlik harakatining ma'naviy poydevoriga o'z hissasini qo'shgan.

Anbar Otin ijodidagi vatanparvarlik — bu xalq dardini yurakdan his qilish, o'z zamonasidagi feodalizm illatlari va savodsizlikka qarshi kurashish, millatni ilm-ma'rifat sari boshlash demakdir. Uning asarlari bugungi kunda ham milliy g'urur, vatansevarlik va erkinliksevarlik ruhini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Anbar otin .She`rlar,inv,№1647, 117-sahifa.
2. O'zbek adabiyoti tarixi" (5 jildlik, 5-jild) Toshkent: «Fan» nashriyoti . 1980
3. F. Husainova. "Demokrat shoira Anbar Otin" O'zbekiston SSR «Fan» nashriyoti.1964.